

POLIZ EKINLARI NOMLARI ASOSIDA O‘XSHATISH VA KO‘CHIMLARNING HOSIL BO‘LISHI

Avezova Hulkar Madaminovna
Urganch innovatsion universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada poliz ekinlari nomlari asosida o‘xshatish va ko‘chimlarning hosil bo‘lishi masalasi turli misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qovun turlari, fitonim, sheva, semantika, atama, tahlil, poliz ekinlari nomlari, lug‘at.

Аннотация: В данной статье на различных примерах анализируется вопрос образования сравнений и смещений на основе названий полисных культур.

Ключевые слова: виды дынь, фитоним, диалект, семантика, термин, анализ, названия поликультурных культур, словарь.

Abstract: This article uses various examples to analyze the issue of the formation of comparisons and biases based on the names of polis cultures.

Key words: Types of melons, phytonym, dialect, semantics, term, analysis, names of multicultural cultures, dictionary.

O‘zbek tilida polizchilikka xos so‘zlarning har xil so‘z birikmalari va ko‘chma ma‘nolar asosida obrazli ifodalar, o‘xshatish, qiyoslashlar hosil qilishi faol. Masalan, handalakday bola - kichkina, yosh bola. O‘g‘il bilan kelinni cho‘lga jo‘natib, mana shu handalakday bola bilan qoldim (Nurali Kobul). Palagi toza – urug‘-aymog‘i, avlodi va oila a‘zolaridan ibrat olsa bo‘ladigan, namunali, zotli. Ayol kishi tarvuz emaski, avval chaqmoqlab, keyin olinsa, deymiz-da, deb kuldilar (A. Eshonov).

Poliz ekinlari turlari ichida ko‘chma ma‘no hosil etishda qovun faol. Chunki qovun boshqa ekinlarga nisbatan shirinligi va keng iste‘mol qilinganligi uchun bu nom ishtirokida turli birikmalar hosil qilingan. Masalan, shirinnovvot o‘yini (Sovet Uzbekistoni san‘ati, 1985, I) – shirinnovvot qovun navi bilan bog‘langan o‘yin nomi. Qovun sayil – qovunxo‘rluk va sayr-tomosha maqsadida ko‘pchilik bo‘lib, dalaga – qovun polizga chiqish (Orifpochcha har yili qovun pishig‘ida bizni qovun sayliga taklif qilardi. X. Qodiriy. Turmush saboqlari), yetti qovun pishig‘i, qovun pishig‘i – vaqt, paytni bildiruvchi umumiy birlik (Qovun pishig‘ida yigirmaga kiraman. A. Eshonov), qovun boshi tandir – tandirning bir turi (Ibroximov S. 54). Shuningdek, qovun poliz, qovun kapa, qovunbozor (1920 yillar oxirigacha ham Samarqand darvozasi obod manzilgoh, qovunbozor edi. X. Qodiriy. Turmush saboqlari) singari birikmalardagi qovun leksik birligining ma‘nosi keng bo‘lib, o‘sha poliz yoki bozorda tarvuz, qovoqlar ham bor bo‘lgan, ularni ham o‘sha polizlarda ekishgan, bozorlarda sotishgan, qovun kapalarda egasi o‘tirib, qovun bilan birga ularni ham sho‘x bolalardan qo‘riqlagan kabi ma‘nolarni bildiradi. Ammo tilda tarvuzbozor, tarvuz poliz, tarvuz kapa yoki qovoqbozor, bodringbozor, qovoq poliz, bodring poliz singari birikmalar yasalmaydi. Chunki qovoq, bodring, tarvuzlar qovun singari xilma-xil navlarga va qovun singari shuhratga ega bo‘lgan emas. Shu sababli ular ishtirokida yuqoridagiga o‘xshash birikmalar hosil qilinmagan. Yasalgan taqdirda ham u tilda g‘ayritabiiy ko‘ringan bo‘lar edi.

Poliz ekinlari nomlari asosida yasalgan ko‘chma ma‘noli til birliklariga, o‘xshatish, qiyoslashlarga e‘tibor qilinsa, ular asosan salbiy tomonni bo‘rttirish uchun xizmat qilganligi ko‘zga tashlanadi. Shu sababli bo‘lsa kerak, bu xil birliklar satirik va yumoristik asarlarda ko‘proq uchraydi. Yana shuni qayd qilish kerakki, salbiy ma‘noni bo‘rttirishda aksariyat hollarda tarvuz, qovoq ko‘proq ishtirok etadi: oyimqovoq ravish yasovchi -dek, -day affiksini olib «tepakal» ma‘nosida keladi: Xullas, ikki-uch yil ichida peshonasi ikki hissaga kengayib, boshi oyimqovoqdek yaltiradi qoldi (N. Aminov. Yolg‘onchi farishtalar). Xorazm shevalarida ham narsani(predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o‘xshatish yo‘li bilan hosil qilingan “qovoqkalla” birligi juda faol qo‘llanilib, aql-idrokida nuqson borligiga ishora qilish ma‘nosida ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin.

Sapchaqovoq - beo'xshov ma'nosida keladi: Yon daftarning birinchi betiga atigi bir kalima: «Sekretar - bu ikkinchi figura». deb yozilgan edi. Qirmizxonning ensasi qotdi. «Himm,-deya o'yladi u,- endi u kishining figurasi birinchi ekan-u, bizniki ikkinchi ekan-da! He,o'rgildim figurangizdan! O'zlari xuddi sapchaqovoqqa o'xshaydilar-u, bo, figuralarini maqtaganlariga o'laymi! (N. Aminov. Yolg'onchi farishtalar).

Dastmolqovoq - oriq, ozg'in ma'nosida keladi: Bu xotin buncha ozg'in? Pishmay qurigan dastmolqovoqqa o'xshaydi (A. Qahhor. Bir shofyorning xotira daftaridan).

Tarvuz - semiz, katta, dumaloq qorin ma'nolarida keladi: Tarvuzdek qorinchasi ustida qo'llarini yuvgandek harakat qila boshladi... Qiyomxonning nozik gavdasi boshliqning tarvuzdek qorniga qapishdi (N. Aminov. Yolg'onchi farishtalar).

Bundan tashqari o'zbek tilida hududlardagi boshqa turkiy tillardan farq qilgan holda poliz ekinlari nomlari askiya janrida, polizchilikka xos payrovlar hosil qilishda ham faol ishtirok etadi. Bunda bir momentga alohida e'tibor berish kerak. Ma'lumki, har bir nom ostida so'z, leksik birlik turadi. Lekin har qanday leksik birlik ham nom bo'la olmaydi. Ammo askiya janrida kulgi hosil qilish uchun, askiyani vujudga keltirish uchun poliz ekini nomi hosil qilinishida ishtirok etgan so'z ham nazarda tutiladi. Ya'ni nom bilan unga asos bo'lgan so'zga alohida diqqat qilinadi. Ma'lum ma'noda ular kontekstda bir-biriga nutqiy omonim ham hisoblanishi mumkin.

Askiyaga asos bo'lgan polizchilikka xos leksik birliklarga diqqat qilaylik:

Qovun tushirmoq – bozorga qovun olib kelmoq, ishni rasvo qilib qo'ymoq; gurs ketmoq – shoshma-shosharlik qilmoq, gursketti qovun naviga ishora; umrboqi bo'ladi – xayrli ish bo'ladi, umrboqi qovun naviga ishora; bosvoldi – bosib olishdi, qo'lga tushirishdi, bosvoldi qovuniga ishora; jo'raqand – xalq kontroli, jo'raqand qovun nomiga ishora; qorachopon – o'zbek urug'larining nomi, qora qovun naviga ishora; pirsildoq – ishni chala qiluvchi, pirsildoq qovun naviga ishora; shakarpora – «halol luqma», shakarpora qovun naviga ishora; uchurug', jufturug' – sheriklik, hamtovoqlik, polizchilikka xos birliklar. Bulardan tashqari o'zbek tilida so'zlashuvchilarning nutqida nafaqat poliz ekinlari bilan bog'liq o'xshatish va ko'chimplarni, balki mazkur poliz ekinlari tanasini bildiruvchi palak so'zining zamirida ham ko'chim turlarini uchratishimiz mumkin bo'ladi. Bilamizki, palak so'zi ma'lum bir urug'dan ko'karib chiqib, yer yuzalab o'sib, gullab hosil beradigan poliz o'simligining tanasini bildiradi: qovun palak, tarvuz palak, bodring palak. Misol uchun:” So'lg'in palaklarda o'smay qolib ketgan xamaklar yiltillab qolar, goh surmaday qorayib ko'rinar edi”. Bu gapda palak so'zi o'z ma'nosida qo'llangan. Polizchilar nutqida ba'zan qovun yoki handalak urug'i tushunchasida qo'llaniluvchi palak so'zi ko'chimning sinekdoxa turini hosil qiladi. Masalan:”To'ft egat palak ekdim”. Mazkur misolda palak, ya'ni urug' orqali qism ifodalanib, butunga ishora qilingan, shu sababga ko'ra sinekdoxa asosida ma'no ko'chishi hosil bo'lgan.

Xalqimiz urf-odatlariga binoan, qizlarimizni kuyovga uzatish uchun gul (kashta) ipakli matolar tayyorlanadi. Mazkur misolda palak so'zi aynan shu ma'noda kelganligini ko'rish mumkin:

Iblisni rahbar deb qarshi oldilar,

Balki sayladilar undan ham ortiq.

Poyiga ipakdan palak soldilar,

So'ng yuksak bir taxtni etdilar tortiq.

• Bu gapdagi palak so'zida ma'no metafora asosida ko'chgan.

Palak so'zi o'xshatish ma'nosida ham ishlatiladi:”Bir palakdan har xil xamak chiqadi deganlari rost ekan-da”, – dedi so'fi yonidagilarga qarab. Bu misoldagi palak so'zi urug' ma'nosida emas, balki bir ota-onadan har xil farzand dunyoga keladi ma'nosini ifodalab kelgan.

Xullas, ko'rishimiz mumkinki, poliz ekinlari nafaqat ozuqaviy mahsulot, insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat etuvchi o'simliklar sifatida, balki xalq og'zaki ijodida bot-bot ishlatilib turuvchi iboralar, maqollar, hikmatli so'zlar, ko'chim va o'xshatishlarning ham asosiy tasvir obyekt bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy lug'atlarda qayd qilingan poliz ekinlari nomlarini hududdagi turkiy tillarga qiyos qilib, qay darajada saqlanishiga e'tibor berilsa, u nomlarning bu tillarda arxaik va faol ekanligi ko'zga

tashlanadi. Shuningdek, bu xildagi poliz ekinlari nomlari orasida tarvuz, qovoq va bodringlarga nisbatan qovun nomlari ko'proq ekanligi ma'lum bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ne'matova G. O'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari: tizimi va badiiy qo'llanilishi. Filol.fan.nomz...dis. avtoref. -Toshkent, 1998.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik izohli lug'ati.-Toshkent: O'qituvchi, 1978.-405 b.
3. Salohiddinov S. O'simliklar sistematikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1966.
4. Saparov M. Turkiy tillarda poliz ekinlari nomlari // O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1990. – B.176-250.